Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 902
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

O'RTA OSIYO DARYOLARI ORALIG'IDAGI TEMIR DAVRI KO'CHMANCHILARI MODDIY MADANIYAT NAMUNALARI VA MANZILGOHLARINING TARIXIY-ARXEOLOGIK TAHLILI

Shavkat Safaraliyevich Amanturdiyev*
Termiz Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
✉ shavkatomonturdiyev198@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot ishida O'rta Osiyo daryolari oralig'ida, xususan qadimgi So'g'd va Shimoliy Baqtriya hududlarida istiqomat qilgan temir davri ko'chmanchi qabilalarining moddiy madaniyati namunalari va yodgorliklari tahlil qilingan. Maqolada mazkur ko'chmanchi jamoalarning o'troq dehqonchilik vohalari aholisi bilan o'zaro aloqalari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o'rni hamda topilgan arxeologik manbalarning davrlashtirilishi muammolari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, arxeologik mintaqalarning geografik tasnifi va ularning davlatchilik tarixidagi ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

O'rta Osiyo, temir davri, ko'chmanchilar, moddiy madaniyat, qo'rg'onlar, So'g'd, Shimoliy Baqtriya, Tulxar, Chirikrabod, migratsiya, arxeologik yodgorlik.

DOI: 10.5281/zenodo.21743862

KIRISH

O'rta Osiyo hududida qadimgi davrlardan buyon o'troq va ko'chmanchi aholining o'zaro integratsiyasi hamda madaniy aloqalari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi omillaridan biri bo'lib kelgan. Eramizdan oldingi birinchi ming yillikda, ya'ni temir davrida mintaqada ko'chmanchi qabilalarning yirik siyosiy birlashmalari vujudga kelishi o'ziga xos murakkab tarixiy jarayon hisoblanadi. Bu ko'chmanchi siyosiy tizimlarning rivojlanish qonuniyatlari o'troq aholi davlatchiligi tarixini o'rganishdan tubdan farq qiladi. Chunki ko'chmanchilar dastlabki bosqichlarda o'zlarining doimiy yirik shaharlariga ega bo'lmaganlar [1, B. 45].

Biroq, aynan mana shu ko'chmanchi ittifoqlar va qabilaviy birlashmalar keyinchalik o'zbek davlatchiligi poydevorini tashkil etgan qadimgi Qang', Kushon yoki Parfiya kabi qudratli imperiyalar va davlatlarning vujudga kelishida hamda ularning harbiy-siyosiy elitasi shakllanishida bevosita ishtirok etgan. Mazkur davlatlarning iqtisodiy asosini o'troq vohalar tashkil etgan bo'lsa-da, ularning siyosiy boshqaruvi va harbiy quvvati ko'p jihatdan ko'chmanchi unsurlar bilan bog'liq edi. Ko'chmanchilarning asl hududida ularning o'zlari bunyod etgan shahar yoki mudofaa devorlari tizimi deyarli yo'qligi sababli, ularning tarixi, ijtimoiy tuzumi va turmush tarzini o'rganishda arxeologik qazishmalar davomida topilayotgan moddiy madaniyat namunalarini kompleks tadqiq etish yagona va eng maqbul yo'l bo'lib qolmoqda.

Arxeologik mintaqalar va ko'chmanchi madaniyatining geografik tasnifi. O'rta Osiyo hududida ko'chmanchi qabilalarning moddiy merosini tizimli o'rganish ishlari o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab jadallashdi. Xususan, Orol bo'yi va Sirdaryoning quyi oqimlarida S.P. Tolstov rahbarligida olib borilgan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi natijasida juda katta ilmiy kashfiyotlar qilindi [1, B. 112]. Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalariga oid bo'lgan va sak-apasiak qabilalariga tegishli deb qaraladigan mashhur "Chirikrabod" manzilgohining topilishi fanda tub burilish yasadi. Buning ortidan Quyusoy, Tagisken va Uygarak kabi

yirik va boy moddiy manbalarga ega bo‘lgan mozor-qo‘rg‘onlar guruhlari o‘rganildi [1, B. 118].

Olimlar tomonidan ko‘p yillik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan holda, O‘rta Osiyo ko‘chmanchilaridan qolgan moddiy madaniyat namunalarining lokal xususiyatlari, dafn marosimlari va sopol buyumlari majmuasiga qarab quyidagi asosiy arxeologik mintaqalar ajratilgan:

- Orol bo‘yi hududi yodgorliklari;
- Yettisuv, Tyan-Shan, Farg‘ona va Pomir tog‘oldi hamda tog‘li hududlari;
- Toshkent vohasi, Sirdaryoning o‘rta oqimlari, Janubiy Qozog‘iston va O‘rta Osiyoning Amudaryo hamda Sirdaryo oralig‘i hududlari;
- Xorazm va shimoliy-g‘arbiy Turkmanistonning cho‘l va yarim cho‘l hududlari;
- Markaziy va sharqiy Qozog‘iston kengliklari.

Ushbu har bir arxeologik mintaqa o‘zining o‘ziga xos geografik iqlimi, chorvachilik turlari va qo‘shni o‘troq madaniyatlar ta’siridan kelib chiqib, yana bir nechta kichik guruhlarga bo‘linadi. Sirdaryoning o‘rta oqimida olib borilgan qazishmalar natijasida fanga “Qovunchi (I-II-III)” madaniyatining kiritilishi ham ushbu hududlardagi o‘troqlashish va o‘zaro madaniy ta’sir jarayonlarini ko‘rsatuvchi muhim omildir.

So‘g‘d vohasi ko‘chmanchilari yodgorliklari.

O‘rta Osiyo daryolari oralig‘idagi, ya'ni Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini o‘z ichiga olgan qadimgi So‘g‘d hududida ko‘chmanchilar qabristonlarini o‘rganish ishlari XX asrning 50-yillarida boshlangan [3, B. 15]. So‘g‘ddagi yodgorliklar georafik jihatdan asosan ikki yirik guruhga – Samarqand va Buxoro vohalari guruhlariga bo‘linadi.

Samarqand hududida arxeologlar tomonidan to‘rtta yirik qabriston majmuasi: Otaliqsoy, Mironko‘l, Oqjartepa va Sazag‘an qabristonlari chuqur qazib o‘rganildi. Bu yerdagi qo‘rg‘onlarning xronologik izchilligi turlichadir. Masalan, Otaliqsoydagi 9 va 10-qo‘rg‘onlar hamda Oqjartepadagi 4-qo‘rg‘on eng qadimgi qatlamlarga mansub bo‘lib, ular miloddan avvalgi IV asrga borib taqaladi. Otaliqsoydagi 5-qo‘rg‘on esa nisbatan kechroq, ya‘ni miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmi va I asrlarga oid topilmalarni bergan. Hududdagi boshqa ko‘plab yirik qo‘rg‘onlar esa asosan eramizning II-IV asrlari bilan davrlashtiriladi [3, B. 36].

Buxoro vohasida esa ko‘chmanchilar arxeologiyasini o‘rganish yanada keng ko‘lamda olib borildi. Bu yerda Qalqonsoy, Quyimozor, Qiziltepa, Livandak, Xazar, Shahrivayron va Yangiqo‘rg‘on qabristonlarida 150 dan ortiq mozor-qo‘rg‘onlar to‘liq qazib tugatildi. Ushbu topilmalarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Buxoro guruhiga oid qo‘rg‘onlar miloddan avvalgi II asrning so‘nggi choragidan boshlab, eramizning II-IV asrlarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi [3, B. 80].

Shimoliy Baqtriya hududi moddiy manbalari tasnifi. Shimoliy Baqtriyaning ko‘chmanchi aholisiga tegishli yodgorliklar nihoyatda boy va kompleks o‘rganilgan bo‘lib, bu materiallar ularni batafsil tasniflash va ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bu hududdagi qo‘rg‘onlarning aksariyati Amudaryoning o‘rta oqimiga yaqin, dehqonchilik qilinmaydigan dasht va yarim cho‘l mintaqalarida to‘plangan bo‘lib, ular yuzlab qabrlardan iborat ulkan nekropollarni tashkil etadi. Olimlar Shimoliy Baqtriya hududini tabiiy-geografik joylashuviga ko‘ra uchta hududiy guruhga ajratishadi:

- G‘arbiy guruh – sharqiy chegarasi Surxondaryo daryosi bilan tutashgan yerlar;
- Markaziy guruh – Surxondaryo va Vaxsh daryolari oralig‘idagi hududlar;
- Sharqiy guruh – Vaxsh daryosidan sharqda joylashgan hududlar.

G‘arbiy guruhdagi eng yirik va fanda to‘liq o‘rganilgan etalon yodgorlik – Bobish qabristonidir. Ko‘hitang tog‘ tizmalari atroflarida ham shunga o‘xshash jami 345 ta qo‘rg‘on aniqlangan bo‘lib, ulardan 150 tasi arxeologik jihatdan qazib o‘rganilgan.

Markaziy guruhga esa mintaqadagi deyarli barcha mashhur va yirik mozor-qo‘rg‘onlar kiradi. Ularning eng katta qismi Surxondaryoning quyi oqimi bilan Vaxsh daryosi oralig‘ida joylashgan Bishkent vodiysidan topilgan [2, B. 61]. Bu yerda bir-biriga yaqin masofada joylashgan Tulxar, Aruqta va Ko‘kqum qabristonlari ochilgan. Birgina Tulxar qabristonining o‘zida mavjud 348 ta qo‘rg‘ondan 219 tasi to‘liq qazilgan bo‘lib, moddiy buyumlarining xususiyatiga qarab 18 ta alohida tipologik guruhga ajratilgan [2, B. 75]. Sharqiy mintaqa esa

nisbatan kamroq o‘rganilgan bo‘lsa-da, Ksir qabristonida olib borilgan qazishmalarda 30 ga yaqin o‘ziga xos tosh xalqali qo‘rg‘onlar tadqiq etildi.

O‘rta Osiyo daryolari oralig‘idagi ko‘chmanchi qabilalar madaniyatini o‘rganishda bugungi kunda eng asosiy ilmiy muammolardan biri – bu yodgorliklarni aniq va qat’iy davrlashtirish (xronologiya) masalasidir. Buning asosiy sababi, qabrlardan topilayotgan sopol idishlar va qurol-yarog‘ turlarining mintaqadagi o‘troq madaniyatlar bilan o‘zaro o‘xshashligi va ularning davriy chegaralari haqida fanda yakdil fikrning mavjud emasligidir [3, B. 102] .

Bu borada eng aniq va boy stratigrafik ma‘lumotlarni Tulxar qabristoni materiallari beradi. Tulxar yodgorligining so‘nggi qatlamlaridan topilgan moddiy manbalar Shimoliy Afg‘onistondagi Oyxonim hamda O‘zbekiston janubidagi Dalvarzintepa shahar xarobalaridan topilgan ashyolar bilan to‘liq mos keladi [2, B. 142]. Ushbu dalillarga tayanib, Tulxar qabristoni miloddan avvalgi II asrning so‘nggi o‘ttiz yilligidan eramizning I asrigacha bo‘lgan davrga tegishli deb xulosa qilinadi. Boshlang‘ich davri Tulxar bilan bir xil bo‘lgan Bobish qabristonining so‘nggi bosqichi esa eramizning II-III asrlarigacha davom etgan. Ksir qabristoni ham markaziy guruh bilan bir xil davrlashtiriladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, daryolar oralig‘idagi temir davri ko‘chmanchilari yodgorliklarining davrlashtirilishi o‘sha davrda butun O‘rta Osiyo mintaqasida sodir bo‘lgan yirik etnik migratsiyalar, xususan, yuyejlar va saklarning siljishi kabi global tarixiy voqealar bilan uzviy bog‘liqdir. Dehqonchilik vohalarining naq ichki qismida, unumdor yerlarda ko‘chmanchilarga xos bo‘lgan bunday yirik mozor-qo‘rg‘onlar guruhlarining to‘planishi o‘sha tarixiy bosqichda mintaqadagi oliy siyosiy hokimiyat aynan ko‘chmanchi sulolalar va harbiy elita qo‘lida bo‘lganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, ushbu qabrlardan ko‘chmanchilarning an’anaviy turmush tarziga xos bo‘lmagan, yuqori sifatli o‘troq-shahar madaniyatiga tegishli sopol buyumlar, nafis taqinchoqlar va qurollarning ko‘plab uchrashi, ikki xil xo‘jalik yurituvchi aholi – o‘troq dehqonlar va chorvador ko‘chmanchilar o‘rtasida doimiy, uzviysiz iqtisodiy-savdo va madaniy aloqalar barqaror saqlanganligini hamda ularning o‘zaro integratsiyalashuvini is-botlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. - Москва; Ленинград : Издательство Академии наук СССР, 1948. - 322 с.
2. Мандельштам А. М. Кочевники на пути в Индию / Труды Таджикской археологической экспедиции. Том V. - Москва ; Ленинград : Наука, 1966. - 232 с.
3. Обельченко О. В. Культура античного Согда: по археологическим данным VII в. до н.э. - VII в. н.э. - Москва : Наука, 1992. - 256 с.